https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Umarova Yulduzxon Inomjon qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti

O'zbekistonning eng yangi tarixi tayanch doktaranti

E-mail:umarovay2@gmail.com

AYOLLAR TA'LIMI – JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY VA STRATEGIK OMILI: TASSR TAJRIBASI VA "O'ZBEKISTON - 2030" MODELI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (TASSR) davrida musulmon ayollarning ta'lim tizimiga jalb etilishi, ularning ishtirokini oshirish, faolliklarini yanada kuchaytirish uchun davlat tomonidan ko'rsatilgan yordam hamda bugungi "O'zbekiston - 2030" strategiyasida ayollar ta'limiga oid ustuvor yo'nalishlar qiyosiy-tarixiy tahlil asosida o'rganildi. Shuningdek, musulmon ayollarning ta'lim tizimidagi o'rnini oshirishdagi islohotlar va bugungi strategiyadagi rejalarning bajarilishi natijalarini jadval va grafik orqali yoritildi. Tadqiqot natijasida har ikki davrda ham ayollar ta'limi jamiyat tarqqiyotining muhim omili sifatida e'tirof etilgani, farqlari esa bu davrdagi jarayonlarga nisbatan turlicha yondashuvlar va vositalarda namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Kalit so'zlar: TASSR, musulmon ayollar, ta'lim tizimi, xotin-qizlar, Yangi O'zbekiston, 2030 strategiya, gender tenglik.

Abstract. This article examines, on the basis of a comparative-historical analysis, the involvement of Muslim women in the education system during the period of the Turkestan Autonomous Soviet Socialist Republic (TASSR), the state support provided to increase their participation and activity, as well as the priority directions related to women's education outlined in the current "Uzbekistan - 2030" Strategy. In addition, the reforms aimed at enhancing the role of Muslim

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

women in the education system and the results of the implementation of plans set forth in the contemporary strategy are presented through tables and graphs. As a result of the study, it was scientifically substantiated that in both periods women's education was recognized as an important factor in societal development, while the differences were reflected in diverse approaches and instruments applied to these processes in each era.

Keywords: TASSR, Muslim women, education system, women and girls, New Uzbekistan, 2030 Strategy, gender equality.

Аннотация. В данной статье на основе сравнительно-исторического анализа рассматриваются вопросы вовлечения мусульманских женщин в систему образования в период Туркестанской Автономной Советской Социалистической Республики (ТАССР), государственная поддержка, направленная на повышение их участия и активности, а также приоритетные направления в сфере женского образавания, отражённые в современной стратегии «Узбекистан – 2030». Кроме того, реформы, направленные на повышение роли мусульманских женщин в системе образаванияб а также результаты реализации мероприятий, предусмотренных в действующей стратегии, представлены в виде таблиц и графиков. По итогам исследования научно обосновано, что в оба периода женское образование признавалось важным фактором общественного развития, при етом различия проявлялись в подходах и инструментах, применяемых к данным процессам в соответствующие исторические эпохи.

Ключевые слова: ТАССР, мусульманские женщины, система образования, женщины и девушки, Новый Узбекистан, стратегия «2030», гендерное равенство.

Ayollar ta'limi – har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun ajralmas omil bo'lib, u inson kapitalini rivojlantirish, gender tenglikni ta'minlash

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi[1]. Jamiyatda ayollar faol bo'lishi, o'z o'rnini topishi hamda jamiyatning kichik bo'g'ini bo'lgan oilada farzandlarini yuksalishi uchun ham avvalo, ularning bilimini oshirish zarur. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030 Strategiyasi"da ham xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, gender tenglikni ta'minlash hamda ularning ijtimoiy,iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish bo'yicha 2030-yilgacha qilinadigan rejalar aniq belgilangan. Ta'lim tizimida xotin-qizlar ishtirokini oshirish bo'yicha tarixiy shakllanish jarayoniga nazar tashlasak, ayollar ta'limi masalasi XX asr boshlaridan boshlab Markaziy Osiyoda davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi[2]. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, musulmon jamiyatlarida ayollarning ta'limga jalb etilishi ijtimoiy modernizatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan[3]. Turkiston ASSR (1918-1924-yillar) tashkil etilishi bilan yurtimizda keng ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda o'zgarishlar sodir bo'la boshlagan. Ayniqsa, sovet hokimyati o'rnatilishi bilan Turkiston hududida ayollar savodxonligini oshirish masalasi davlat darajasiga ko'tarildi[4]. TASSR davridagi xotin-qizlar ta'limiga oid qaror va farmonlar asosan mafkuraviy ishlab chiqilib, uni keng targ'ib qilish ishlari olib borildi. Shu nuqtayi nazardan, o'rganilgan ma'lumotlar asosida Turliston ASSR davrida ayollar ta'limida qilingan ishlar va bugungi strategik islohotlarni qiyosiy-tarixiy, ilmiy tahlil qilish maqolamizning asosiy maqsadidir. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ayollar ta'limi masalasi tarixiy tajriba va zamonaviy strategik yondashuvlar uyg'unligida ilk bor qiyosiy-tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilinmoqda.Tarixiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish bugungi ta'lim siyosatini yanada takomillashtirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu ilmiy tadqiqotni bayon qilishda quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

1)Tarixiy-tahlil metod -TASSR davriga oid arxiv ma’lumotlari, tarixiy adabiyotlar analiz qilindi.

2)Qiyosiy metod – TASSR davri va “O’zbekiston - 2030” strategiyasidagi ta’lim siyosatlari o’zaro solishtirildi.

3)Normativ-huquqiy tahlil – rasmiy strategik hujjatlar(farmonlar, qarorlar) tadqiq etildi.

4) Jadval va grafik tahlil – natijaviy ko’rsatkichlarning tizimli ifodalanishi.

Turkiston ASSRda 1919-yil iyulda Toshkent shahar qo’mitasi huzurida Xotin-qizlar komissiyasi tuziladi.Ularning asosiy maqsadi joylarda ayollar ishtirokida uchrashuv va yig’ilishlar tashkil etish, bolsheviklar siyosati va g’oyalarini targ’ib qilishdan iborat bo’lgan[5,27]. Bu komissiya o’z ish faoliyatini to’liq bajara olmagan. Sababi komissiya a’zolari rus millatiga mansub bo’lganligi uchun tub yerli aholi ularni tushuna olmagan hamda mahalliy ayollar bunday yig’inlarga dastlab borishni xohlamagan. Komissiya a’zolari Toshkentda xotin-qizlar sho’balarini tuza boshlaydi va ular orasida tatar millatiga mansub ayollar ham borligi mahalliy ayollarga targ’ibot ishlarini olib borishda qo’l kelgan. 1920-yil 15-martdan 25-martga qadar Toshkentda birinchi martda ishchi xotin-qizlar qurultoyi bo’lib o’tgan[5,28]. Noyabr oyida ham Butunturkiston xotin-qizlar qurultoyi ham bo’lgan va bunday yig’ilishlar natijasida sho’balarga mahalliy ayollar ham qatnasha boshlagan. Dastlab hukumat ziyolilar ayollarini yig’ilishlarga jalb qilish ishlarini olib borgan bo’lsa-da, ularda bunday yig’inlarga borishga xohishning yo’qligi, qiziqmasligi sabab, shuba boshliqlari tomonidan oddiy aholi orasidagi xotin-qizlarni jalb etish boshlangan. Ayni o’sha davr nuqtayi nazaridan qaralganda, Birinchi jahon urushi yakunlangan bo’lsa-da uning ta’siri bor ya’niki oila boshliqlari urushga ketgan va qaytib kelmagan, shuningdek, mardikorlikka olib ketilgan boquvchisiz qolgan, ocharchilik holatida bo’lgan oddiy aholining xotin-qizlari yig’inlarga kelishga harakat qilgan. Bu yig’inlar so’ngida dasturxon yozilib,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

osh tarqatilgan bu esa muhtoj ayollarni bir kun oilasini ovqat bilan ta’minlash imkoniyatini bergan. Boquvchisiz qolgan ayollar artellarda ham ishlashga majbur bo’lgan. Lekin bu korxonalarda ishlash uchun yetarli bilim va malaka bo’lmaganligi sababli, ular uchun qisqa muddatli kasb-hunar kurslari tashkil etilgan. D.Nasretdinovaning ta’kidlashicha, aynan tatar va boshqird ayollari orqali qizlar maktablari, savodxonlik kurslari va pedagogik to’garaklar faoliyati yo’lga qo’yilgan[1].Bu jarayon mahalliy an’analar bilan qarama-qarshilikda kechgan bo’lsa-da, ayollarni ijtimoiy hayotga jalb etishda muhim rol o’ynagan. Savodxonlik va artellar qoshida tashkil etilgan kurslarda o’qib, bitirgan ayollar korxonalarda ishlash bilan birga ko’proq maosh olgan. Mana shunday maktab kurslarini 1920-yilda 40 ta o’zbek, qozoq, tatar millatiga mansub xotin-qizlar tamom qilgan. Bazan tashkil etilgan savod maktablari moddiy ta’minot yo’qligi sabab ham yopilishiga olib kelgan. 1922-yil oxirida o’lkada 275 ta milliy xotin-qizlarni o’z ichiga olgan bir necha doimiy maktablar vujudga kelgan. Ishchilar fakultetiga milliy xotin-qizlardan 30 kishi o’qigan[6]. Buning natijasida musulmon ayollar ham sekin-asta ijtimoiy hayotda faol bo’la boshlaganlar. TASSR davrida aholining katta qismi, ayniqsa musulmon ayollar savodsiz edi. Shu sababli ayollar ta’limi davlat siyosatining muhim yo’nalishiga aylantirildi. Xotin-qizlar uchun maxsus maktablar, savodxonlik kurslari, kechki o’quv mashg’ulotlari tashkil etildi. Ushbu ta’lim shakllari ayollarning diniy va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy etilgan. Davlat tomonidan bepul ta’lim, darsliklar bilan ta’minlash va ayol pedagoglarni tayyorlash choralari ko’rildi. Natijada ayollar ta’lim orqali jamiyat hayotida faol ishtirok eta boshladi. Zamonaviy tadqiqotchilar musulmon ayollar ta’limi masalasida diniy omil muhim rol o’ynaganini qayd etadilar. Abdullayeva va G’ofurovalarning fikricha, sovet davrida ayollar ta’limi diniy institutlardan ajratilgan holda rivojlangan bo’lsa, bugungi kunda diniy qadriyatlar va ta’lim o’rtasidagi muvozanatni saqlashga intilish kuzatilmoqda[7]. Bu holat ayollar ta’limining mazmun va shakliga bevosita ta’sir ko’rsatgan. Shuningdek, Spinger

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

nashrida chop etilgan tadqiqotda O'zbekistonda ayollarning kasbiy va oliy ta'limga jalb etilishi gender tenglik siyosatining muhim ko'rsatkichi sifatida baholanadi[8].

So'nggi yillarda O'zbekistonda gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, xotin-qizlarni har tomonlama rivojlanishlari uchun imkoniyatlarini oshirish va ularning ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32% ga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi[9]. 2023-yil 21-dekabrda qabul qilingan "Oil ava xotin-qizlar qo'mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-208-son farmoni, "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-401-son qarori hamda 2022-yil 7-martdagi PF-87-son "Oil ava xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari kabi normativ-huquqiy hujjatlar - jamiyatning barcha sohalarida xotin-qizlar o'z o'rinlarini egallashlari, o'zlarining sohalari bo'yicha yanada rivojlanishlari uchun keng imkoniyatlar berib kelmoqda. Ayollar ta'limi O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida baholanmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida qizlarning oliy ta'limga qamrovi kengaytirilmoqda, grant va stipendiyalar soni oshirilmoqda, masofaviy ta'lim imkoniyatlari joriy etilmoqda. Bu islohotlar ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi 5 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha 100 ta muhim maqsadni o'z ichiga olgan bo'lib, 1.3 yo'nalishning 25-maqsadida aynan gender tenglik masalasi, xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda yanada ishtirokini kuchaytirish, ta'lim tizmida ularning imkoniyatlarini oshirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq rejalar keltirilgan. Statistik ma'lumotlar asosida olib borilgan tahlillar ayollarning oliy ta'limdagi ulushi oshib borayotganini

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ko’rsatadi[10]. Bu holat TASSR davri bilan qiyoslaganda, ayollar ta’limiga nisbatan yondashuvlarda uzviylik va transformatsiya mavjudligini ko’rsatadi.

Jadval ma’lumotlari asosida ayollarning ta’lim tizimidagi ishtiroki dinamikasini kuzatish mumkin.

Tahlil mezonlari	**TASSR davri (1918-1924-yillar)**	**“ O’zbekiston -2030 Strategiyasi”**
Maqsad	Savodsizlikni tugatish	Inson kapitalini rivojlantirish
Davlat yordami	Bepul maktab va kurslar	Grantlar va stipendiyalar
Ta’lim shakllari	Savodxonlik kurslari	Raqamli va masofaviy ta’lim
Yondashuv	Mafkuraviy	Huquqiy va gender tenglik
Jamiyatdagi ayol roli	Jamiyat qurilishida faol ishtirokchi	Ijtimoiy-iqtisodiy faol lider

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, maqolamizning ilmi yangiligi quyidagilardan iborat:

Birinchidan, TASSR davrida musulmon ayollarning ta’lim tizimiga jalb etilishi masalasi “Yangi O’zbekiston – 2030” strategiyasi bilan qiyosiy-tarixiy yondashuv asosida tahlil qilindi.

Ikkinchidan, ayollar ta’limiga oid davlat siyosatining tarixiy uzviyligi va zamonaviy davomiyligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Uchinchidan, TASSR davridagi ta’limiy yordam shakllari bugungi gender tenglik siyosati bilan taqqoslanib, ularning o’xshash va farqli jihatlari aniqlashtirildi.

To’rtinchidan, ta’lim orqali ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish g’oyasining tarixiy ildizlari ochib berildi.

Turkiston ASSR davrida tashkil etilgan imkoniyatlar va “O’zbekiston – 2030 Strategiyasi” bo’yicha qilingan ishlar va qilinayotgan rejalar bo’yicha qiyoslash natijasida, ushbu maqolamizdan Oliy ta’lim muassasalarida O’zbekiston tarixi, gender tadqiqotlari fanlarini o’qitishda; ayollar va qizlar ta’limiga oid dasturlarni

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ishlab chiqishda; magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarida; ta'lim tizimida gender tenglikka oid uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki davrda ayollar ta'limi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga kirgan. TASSR davrida bu jarayon ijtimoiy integratsiya va savodsizlikni yo'qotish maqsadida olib borilgan bo'lsa, hozirgi strategiyada bu – gender tenglik, iqtisodiy mustaqillik va barqaror rivojlanish omiliga aylangan. Bugungi strategik yondashuv tarixiy tajribani inobatga olgan holda, ta'lim tizimini raqamlashtirish, shaffof grant tizimi va huquqiy kafolatlar orqali yanada takomillashtirmoqda.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Turkiston ASSR davrida musulmon ayollarning ta'lim tizimiga jalb etilishi davlat tomonidan ijtimoiy modernizatsiyaning muhim omili sifatida ko'rilgan bo'lsa, mustaqil O'zbekiston sharoitida, xususan " O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida ayollar ta'limi barqaror taraqqiyot va inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishiga aylangan. Qiyosiy-tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki davrda ham ayollar ta'limi jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, ushbu jarayonga nisbatan yondashuvlar, mafkuraviy asoslar va amalga oshirish mehanizmlarida tub farqlar mavjud bo'lgan.

TASSR davrida ayollar ta'limi asosan siyosiy-mafkuraviy vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan bo'lib, savodxonlikni oshirish va ayollarni jamoat hayotiga jalb etish asosiy maqsad sifatida belgilangan. Zamonaviy bosqichda esa ayollar va qizlarning ta'limga teng kirish imkoniyatlarini ta'minlash, ularning intellectual salohiyatini rivojlantirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash davlat siyosatining markaziy yo'nalishiga aylangan. Bu esa ayollar ta'limiga bo'lgan yondashuvning miqdoriy ko'rsatkichlaridan sifat jihatidagi rivojlanishga o'tganini ko'rsatadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Tadqiqot davomida ilk bor TASSR davri va hozirgi strategic hujjatlar doirasida ayollar ta'limi siyosati qiyosiy-tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilinib, mazkur jarayonlarda uzviylik va transformatsiya elementlari aniqlandi. Olingan xulosalar tarixiy tajribani zamonaviy davlat siyosatini takomillashtirishda hisobga olish, xususan ayollar ta'limini rivojlantirishga qaratilgan dastur va mehanizmlarni yanada samarali amalga oshirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.UNESCO. Gender Equality in Education: Global Monitoring Report. – Paris,2018.

2.Women's education.(2024). In Wikipedia. Retrieved January 2025,from hhtps://ru.wikipedia.org/wiki/ Женское_образование

3.Education of women in the Muslim world.(2021). Proceedings of Contemporary Scientific Research,248-252.

4.Nasretdinova,D.M.(2025).The role of Tatar women in the formation of the Soviet educational system in Turkestan. Historical Ethnology, 10(3),45-60.

5.Rahmonova S. O'zbekiston SSRda ayollarning ijtimoiy hayoti(1917-1941-yy).tar.fan.bo'yicha PhD diss.avtoreferati.-T.:2025.

6.R.U. Turkiston xotin-qizlari o'rtasida nima ishlandi/Turkiston.1923-yil,16-noyabr.

7.Abdullayeva M., G'afurova N.(2025). Islam and its influence an women's lives in Uzbekistan. Habitus: Journal of Social Sciences, 6(1),33-47.

8.Islam, women and genderization in professions: The case of Uzbekistan.(2024). In Gender, religion and social transformation in Central Asia(pp.91-110).Springer. hhtps://doi.org/10.1007/978-981-99-8517-3_5

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

9.O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati “2030-yilga qadar O’zbekiston Respublikasida Gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida” qarori. SQ-297-IV-son.Toshkent.2021-yil 28-may.

10.Women’s rights and security in Central Asia.(2003). World Policy Journal, 20(1), 45-56.